



MUAMMOLI KREDITLARNING TURLARI

Raxmanova Sitora Vaxidovna

Bank moliya akademiyasi MBA Banking fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Respublikamizdagi banklarning muddati o'tgan kreditlar bilan ishlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari muhokama qilingan. Muammoli kreditlarning salmog'ini kamaytirish, ularni vujudga kelish omillarini bartaraf etish va kredit portfelini sog'lomlashtirishdagi eng samarali usullar ochib berilgan. Shuningdek, kredit portfelidagi mavjud muammoli kreditlar tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, aktivlar, kredit portfellari, kredit, risk, muddati o'tgan to'lovlar.

Kreditning turlari asosan uning mohiyatini aniqroq tushunish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, kreditning nafaqat turlari va shakllari o'rtasida, balki tasniflanishi ham ulardan ajralgan holda o'rganilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kredit an'anaviy ravishda qator belgilarga qarab tasniflanishi mumkin. Xususan, kredit qarzdor va kreditor toifasi bo'yicha (1), kreditni taqdim etish muddatiga qarab (2) va kreditni berish shakllariga (3) qarab tasniflanadi.

Muammoli kreditlarning yuzaga kelishi kredit riskining ta'siri bilan bog'liq bo'lib, natijada bank qarz oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq qaytara olmasligi va bank bunday qarz oluvchilarga kredit berish bilan bog'liq zararlarni keltirib chiqarishi mumkinligidan xavotirda bo'ladi. Shuning uchun bank amaliyotida muammoli kreditlar ko'pincha past sifatli kreditlar deb yuritiladi. Muammoli kreditlarning bu talqini muammolarni yuzaga kelishi natijasidagi yo'qotishlarga qaratiladi. Biroq, har bir muammoli kredit ham yo'qotishlar bilan yakun topmaydi. Bankning vazifasi esa ehtimoliy yo'qotishlarning oldini olish, yoki minimallashtirishdan iboratdir.

Muammoli kredit qarzining uslubiy nuqtai nazaridan kelib chiqib, kredit bo'yicha "muammo" tushunchasining mazmuniga qarab, ko'rsatkichlarni tizimlashtirish muhim ahamiyatga ega. Nazariyada va amaliyotda qo'llaniladigan "muammo" tushunchasining turli talqinlari kreditni qaytarish manbalari (birlamchi va ikkilamchi) va kredit risklarini baholash parametrlari (real va ehtimoliy) ga qarab muammoli kreditlarni tizimlashtirish imkonini beradi. Tijorat banklaridagi muammoli kreditlar bo'yicha taklif etilayotgan ko'rsatkichlar quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.



Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida

2020 yil 1-iyul holatiga

MA'LUMOT

mlrd. so'm

No	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
	Jami			2,9%
	Davlat ulushi mavjud banklar			3,0%
1	O'zmilliybank			2,5%
2	O'zsoatoqturilishbank			4,8%
3	Asaka bank			4,6%
4	Ipoteka-bank			3,0%
5	Agrobank			1,2%
6	Xalq banki			3,1%
7	Qishloq qurilish bank			1,4%
8	Aloqabank			2,4%

Bankning ichki audit xodimlari yoki kredit bo'limi xodimi tomonidan muammoli kredit yuzaga kelganligi yoki mavjudligi to'g'risida axborot aniqlangandan keyin bu kreditni boshqarish muammoli kreditlar bilan ishlash bo'limiga topshirilishi mumkin. Bu bo'lim kredit bo'limi bilan hamkorlikda ma'lumotlarni yana bir bor tahlil qilib, muammoli holatdan chiqish strategiyasini ishlab chiqishi lozim. Buning uchun muammoli kreditlarni ularni berish bo'yicha belgilariga qarab quyidagi guruhlarga bo'lib tasniflash maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1.Bankning o'z qarori bo'yicha berilgan kreditlar;
- 2.Hukumat qarori bo'yicha berilgan kreditlar;
- 3.Vazirliklar kafolati bo'yicha berilgan kreditlar;
- 4.Boshqa turli qaror va kafolatlar bo'yicha berilgan kreditlar;

XULOSA

Bank faoliyati doimo riskli operatsiyalar, bilan bog'liq bo'lgani uchun ular faoliyatida doimo muammoli kreditlar vujudga keladi. Respublika tijorat banklari kredit portfelining tahlili shuni ko'ssatadiki, ba'zi bir banklarda bunday kredit salmog'i ancha yuqori. Bu kreditlarni boshqarish, ularni o'z vaqtida undirib olish, ancha vaqt va mehnatni talab qiladi.

Hozirgi vaqtida tijorat banklarida muammoli kreditlar bo'yicha ishlarni kredit bo'limi xodimlari olib boradi. Bu jarayonning ijobiy tomoni shundaki, kredit bo'limi



xodimi shu kreditni bergenligi uchun mijozni, uning moliyaviy ahvolini yaxshi bilishi mumkin. Ikkinchi tomondan shu bank xodimi yetarli nazorat olib bormaganligi sababli shunday muammoli kredit yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Yana qolaversa bu kredit xodimi shu kredit sohasida mijozga yon berishi mumkin. Shu sababli biz tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlovchi maxsus bo'limlar tashkil qilish zarurligini taklif qilmoqchi edik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Роуз П. Банковский менеджмент. Пер. с англ. – М.: Дело, 2019, 192-б.
2. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish. Sh.Abdullaeva, Z,Safarova."Moliya" 2020
3. Анохин, Н.В. Криптовалюта как инструмент финансового рынка / Н.В. Анохин, А.И. Шмырева // Идеи и идеалы. – 2018. – Т. 2. – № 3 (37). – С. 39-49.
4. Анураев, С.В. Проблема сущности безналичных денег / С.В. Анураев // Бизнес и банки. – 2002. – № 24. – С. 1-3. [8]. 10. Бабкин, А.В. Криптовалюта и блокчейнтехнология в цифровой экономике: генезис развития /
5. А.В. Бабкин, Д.Д. Буркальцева, В.В. Пшеничников и др. // Научно-технические ведомости Санкт Петербургского государственного Политехнического университета. Экономические науки. – 2017. – Т. 10. – № 5.